



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## TO'RA SULAYMON SHE'RIYATINING POETIK JOZIBASI

**Misliddinova Malika Xolbayevna**  
Guliston davlat pedagogika instituti dotsent  
**Asqaraliyeva Malikabonu O'tkir qizi**  
Guliston davlat pedagogika instituti, talaba

### Аннотация

Ushbu maqolada To'ra Sulaymonning hayoti va ijodiy faoliyati, qayerlarda ishlagani va u haqida hamkasb insonlarning fikrlari yoritib o'tiladi. To'ra Sulaymonning xarakteri va xususiyatlari, asarlaridagi joziba va betakrorlik, o'ziga xos xususiyatlar keltiriladi. To'ra Sulaymon ustozidan izidan borganligi va ularning she'riyatlaridagi o'xshashliklar, boshqa shoirlarda takrorlanmaydigan jihatlari yoritiladi. Juda ham ko'plab she'rlari qo'shiqqa aylangani haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** To'ra Sulaymon, asarlar, hikoya, she'rlar, Ergash Jumanbulbul, Amir Temur, Turon, Qur'on, inson.

## ПОЭТИЧЕСКОЕ ОЧАРОВАНИЕ ПОЭЗИИ ТУРЫ СУЛЕЙМОНА

**Мислиддинова Малика Холбаевна**  
Гулистанский государственный педагогический институт, доцент  
**Аскарлиева Маликобону Уткир кизи**  
Гулистанский государственный педагогический институт, студентка

### Аннотация

В данной статье рассматривается жизнь и творчество Тора Сулеймона, места его работы и мнения о нем коллег. Представлены характер и особенности Тора Сулеймона, очарование и уникальность его произведений, а также уникальные и отличительные черты. Подчеркивается тот факт, что Тора Сулеймон следовал по стопам своего наставника, и сходства в их поэзии, аспекты, не встречающиеся у других поэтов. Утверждается, что многие его стихи были переложены на музыку.

**Ключевые слова:** Тора Сулеймон, произведения, рассказ, стихи, Эргаш Джуманбулбул, Амир Тимур, Туран, Коран, личность.

## THE POETIC CHARM OF TO'RA SULAYMON'S POETRY

**Misliddinova Malika Kholbayevna**  
Gulistan State Pedagogical Institute, Associate Professor  
**Asqaraliyeva Malikabonu O'tkir qizi**  
Gulistan State Pedagogical Institute, student

### Abstract

This article discusses the life and creative work of Tora Sulaymon, where he worked, and the opinions of other colleagues about him. The character and characteristics of Tora Sulaymon, the charm and uniqueness of his works, and the unique and distinctive features are presented. The fact that Tora Sulaymon followed in the footsteps of his mentor and the similarities in their poetry, aspects that are not repeated in other poets, are highlighted. It is said that many of his poems were turned into songs.

**Keywords:** Tora Sulaymon, works, story, poems, Ergash Jumanbulbul, Amir Temur, Turan, Quran, person.

O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymonning tug'ilishi qatag'on yillariga to'g'ri kelgan, ya'ni 1932-yil Jizzax viloyatida tavallud topgan. To'ra Sulaymon onasining ma'lumot berishicha shoir 1932- yilda tug'ilgan. Hujjatlarda esa 1934 -yil deb berilgan(1.1-bet). Otalari surgun qilingan ya'ni Jizzax viloyatidan Sirdaryoga oilaviy ko'chib kelishgan va shu yerdagi maktablarning birida tahsil olganl. Shu maktablarda darsdan so'ng o'qituvchi sifatida faoliyat olib borgan. Unda she'riyatga va adabiyotga qiziqish juda ham erta boshlangan. Chunki ota-onalari farzandlarini xalq kitoblari, ertaklari, dostonlarini aytib berib o'stirganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, she'riyatga bo'lgan qiziqish erta boshlangan. Uning ijodl ham xalqchil bo'lib, uslubiy jihatdan xalq tilida aytilgan she'rlar va hikoyalarga o'xshab ketadi. Uning juda ham chiroyli xususiyati: birinchidan, xalq va yurt tarixini yaxshi bilardi. To'ra Sulaymon o'zbek xalqini kelib chiqishi, bu yerda yashagan 92 qavm, yoki o'sha Turkiy davlatchilik boshlangandan beri o'tgan davrni besh qo'lday bilardi. etnografiyani yaxshi billardi. Mana shu xalqning butun urf odatlari, an'analari, udumlari, hatto oddiy kiyadigan kiyimlarigacha billar, erinmasdan aytib berardi va bu narsa uning ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqona ijod qilishning siris hu bo'lsa kerak deb o'ylaymiz.

#### **- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

To'ra Sulaymon haqida anchagina kitoblar, maqolalar yaratilgan. To'ra Sulaymon haqida juda ham ko'p ma'lumotlarni internet saytidan topsak bo'ladi. Masalan, [To'ra Sulaymon \(1934-2005\)](#), [To'ra Sulaymon. She'rlar. | Xurshid Davron kutubxonasi](#). Uning sheri to'plamlari ham mavjud. Sulaymonov T. "Qorako'zginam" (she'rlar).- T.: Yosh gvardiya, 1981. Sulaymonov T. "Sirdaryo qo'shiqlari" (she'rlar).-T.: Yosh gvardiya, 1974. To'ra Sulaymon. "Jahonnoma"(dostonlar, ertaklar, hikoyalar, ocherklar).-T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.

To'ra Sulaymon ijodining qisqacha bibliografiyasini quyidagicha shakllantirdik:

| T/r | To'plam nomi                                          | Muallif        | Chop etilgan yili | Nashriyot nomi                                                |
|-----|-------------------------------------------------------|----------------|-------------------|---------------------------------------------------------------|
| 1.  | Qorako'zginam (she'rlar)                              | Sulaymonov T.  | 1981              | Yosh gvardiya,                                                |
| 2.  | Sirdaryo qo'shiqlari (she'rlar)                       | Sulaymonov T.  | 1974              | Yosh gvardiya                                                 |
| 3.  | Jahonnoma( dostonlar, ertaklar, hikoyalar, ocherklar) | To'ra Sulaymon | 1996              | G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti          |
| 4.  | Gul bir yon, chaman bir yon (qo'shiqlar)              | To'ra Sulaymon | 1996              | Toshkent Cho'lpon nashriyoti                                  |
| 5.  | Gulshan (she'rlar, dostonlar)                         | To'ra Sulaymon | 1988              | Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti |
| 6.  | Iltijo (she'rlar)                                     | To'ra Sulaymon | 1976              | G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti          |
| 7.  | Istar ko'ngil (she'rlar)                              | To'ra Sulaymon | 1962              | O'z.Davlat badiiy adabiyot nashriyoti Toshkent                |
| 8.  | Istar ko'ngil (she'rlar, dostonlar)                   | To'ra Sulaymon | 1984              | Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti |

|     |                                           |                |      |                                                                             |
|-----|-------------------------------------------|----------------|------|-----------------------------------------------------------------------------|
| 9.  | Jahongashta ( doston)                     | To‘ra Sulaymon | 1970 | G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti                        |
| 10. | Men qayga borar bo‘lsam ( she‘rlar)       | T. Sulaymon    | 1965 | O‘zbekiston “Yosh Gvardiya” nashriyoti                                      |
| 11. | Qorasoch (doston)                         | To‘ra Sulaymon | 1965 | “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti                                       |
| 12. | Sayhon (she‘rlar, dostonlar)              | To‘ra Sulaymon | 2003 | “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent |
| 13. | Sizni eslayman                            | To‘ra Sulaymon | 1980 | Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti               |
| 14. | Xarsang (ertak)                           | To‘ra Sulaymon | 1994 | Toshkent Cho‘lpon nashriyoti                                                |
| 15. | Yovqochdi (dostonlar, she‘rlar, ertaklar) | To‘ra Sulaymon | 1998 | Toshkent Yozuvchi nashriyoti                                                |
| 16. | To‘ra Sulaymon hikmatlari                 | To‘ra Sulaymon | 2025 | Muharrir nashriyoti                                                         |

#### **- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

Shoir xalq og‘zaki ijodi namunalarini tinglab, yod olib o‘sgani sababli bo‘lsa kerak, Ergash Jumanbulbulni o‘z ustozlari deb hisoblaydi. Buni shaxsan o‘zi ta’kidlaydi: “Biz endi Ergash Jumanbulbul deymiz, Fozil ota deymiz, ko‘proq men shularga ergashib, shularni soyasiga sajda qilib yuraman. Biz ularni hayotini, orzu-armonini yaxshi bilmaymiz. Biz faqat ularning aytgan dostonlarini va og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan dostonlarini bilamiz”(2). Shuning uchun ham uning ijodi xalqchil, xuddi xalq og‘zidan aytilayotganga o‘xshaydi. To‘ra Sulaymon ijodini, uning ifoda yo‘sinini takrorlay oladigan izdoshi, yoki unga ergashadigan ijodkor boshqa chiqmasa kerak. Shunchalik asarlarini mukammal, oddiy, xalq tushunadigan tilda yozganki, uni boshqa inson takrorlay olmaydi. Uning ijodi xalq og‘zaki ijodining bulog‘idan suv ichgan.

#### **- Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Uning ijodidagi birgina “Asragay” she’rini olsak:

| <b>Taqa</b>   | <b>tuyoqni</b>  | <b>asragay</b>     |
|---------------|-----------------|--------------------|
| <b>Tuyoq</b>  | <b>tulporni</b> | asragay            |
| <b>Tulpor</b> | <b>Temurni</b>  | asragay            |
| <b>Temur</b>  | <b>Turonni</b>  | asragay            |
| <b>Turon</b>  | <b>Qur‘onni</b> | asragay            |
| <b>Qur‘on</b> | <b>imonni</b>   | asragay            |
| <b>Imon</b>   | <b>insonni</b>  | asragay            |
| <b>Inson</b>  | <b>olamni</b>   | asragay            |
| <b>Olamni</b> | <b>O‘zi</b>     | asragay.(3.36-bet) |

Birgina shu she’rda “Taqa” so‘zidan juda ham chiroyli, mazmunan bir- biriga mantiqan

bog‘langan, durdek tizilgan she‘riy satrlarini tizadi. Shoirning topqirligi shunda-ki, (“Taqa” bu o‘zi oddiygina so‘z bo‘lib, otning tuyog‘iga temirdan yasab taqiladigan moslama, ya‘ni otning tuyog‘ini toshlarda yemirilishdan himoya qiladigan vosita) “taqa” so‘zini tadrijiy tarzda buyuk Temur, aziz “Qur‘on”, buyuk yaratuvchi Alloh bilan bog‘lay olish uchun shoirdek teran fikrlash lozim. Bu she‘rda buyuk bobomiz Amir Temur haqida so‘z yuritilgan. Aynan ushbu she‘r sohibqiron Amir Temur haykalining poyiga yozilgan. Bu she‘rning strukturasi bor. Taqa – tuyoq – Temur – Turon - Qur‘on – imon – inson – olam – Alloh. Chinakam xalqona ruh bilan yaratilgan ushbu she‘rda zanjirning asosi – 3 narsa Inson, olam, Alloh turadi. To‘ra Sulaymonning barcha asarlaridagi mantiqiy zanjirlar hatto eng mayda detaldan boshlansa ham, albatta olam yaratuvchisiga borib taqaladi. Mana shu fikrimizning yaqqol isboti sifatida “Asragay” she‘rini olsak bo‘ladi. Nafaqat she‘rlarida balki terma qilib kichik to‘rtliklar ham yaratgan. Masalan, Sirdaryoning poytaxti bo‘lmish Guliston haqida yozadi:

Gulistonning yo‘li soz,  
Yo‘lida o‘ynaydi g‘oz,  
Mashinaning ta‘rifin  
Qancha aytsam shuncha soz.(4. 38-bet)

Ushbu to‘rtlik Sirdaryoga atalgan she‘r bo‘lib Gulistonda mashinalarning ko‘pligini aytar ekan, bu xalqning to‘qligi, hayoti farovonlashib borayotganini ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. To‘ra shoir xalqona fikrla, xalqona aytadi. Uning shogirdi, andijonlik Abdunabi Boyqo‘ziyev ham shu yo‘lda davom etayotganini (*bu quvonnarli hol!*) shoirga yozgan kamtarona she‘rida ko‘ramiz. Undagi “bir kesib aytish” To‘ra Sulaymon fikrlari singari qat‘iy yangraydi:

#### **Ehtirom**

Sirdaryo bo‘ylari soz  
Lochin, turna, g‘oz bilan.  
Dala-dashti, qo‘y- qo‘zi  
Cho‘pon, dili roz bilan.  
Yellarda yolkini yolli  
Yildirim do‘nonlari.  
Ovullarda yangraydi  
Ming yillik o‘lanlari.  
Qizlari sho‘x, cho‘h qaysar,  
Jo‘q, dedimi, jo‘q, tamom.  
Chinozdan o‘tolmaysan  
Boshqa yo‘li yo‘q, tamom.  
Vodiyalarda izg‘ima  
O‘xshashini topmaysan.  
Suruv- suruv qo‘yli bo‘l,  
Suluviga yoqmaysan.  
Bu yoqlarda “siz-biz”ing  
Kekkayishing ketmaydi.  
Qirq qozonda “jiz-biz”ing  
Bir ovulga yetmaydi.  
To‘y bersa to‘rt polvoni  
To‘qqiz to‘qli yeb ketar.  
Ko‘pkariga Kesh, Surxon,  
Xorazm ham keb-ketar.  
Yurtlar kezdim bir jozib,  
Bo‘g‘doy so‘z, tuz, noni bor.  
Sirdaryoga taraf yo‘q

To'ra Sulaymoni bor.  
Uzun umrim arqoni  
Tuyangizga tuk bo'lmas.  
Borim: yozgan, yiqqonim  
Qirchang'izga yuk bo'lmas...  
Ustoz, bizni alqabsiz,  
Sizni Xudo alqasin!...(5)

“Jahonnoma” asari fantastik mazmunga ega bo'lib, o'tmishda qanday bo'lsa, hozirgi zamon va kelajakni ham shunday tasvirlovchi afsona janri asosida mifologik tafakkurning yotishi bilan xarakterlanadi. To'ra Sulaymonning “Jahonnoma” nomli asari shu janr asosida yaratilgan. Shoirga xos yana bir jihat, hikmatlar yozishdir. Uning hikmatlari ham o'zgacha, xalq maqollari, hikmatli so'zlari bilan hamohang. To'ra Sulaymon “Hikmatlar”idan namunalar:

- Yetti noqobil farzand o'stirgandan ko'ra, yeti ko'chat o'tqazgan ma'qul...
- O'ttiz tishdan chiqqan gap o'ttiz uruqqa tarqalar.
- Qush orasida yursang, qush tili bilan gaplash.
- Aytganning og'zi yomon, eshitganning qulog'i.
- It tumshug'i tekkan yerga suv ichgali sher kelmas.
- Qizning ko'zi qizilda.
- Xotin xalqining nozi bo'ladi, istig'no tannozi bo'ladi.
- Ayol xalqi ko'ngilchan bo'ladi.
- Oltin boshli xotindan, baqa boshli er yaxshi.
- Bor qarindosh – qarindosh, yo'q qarindosh – ziyondosh.
- O'g'ilniki – o'yin bilan, qizniki – qiyin bilan,
- Odamzodning husni – lafz, tarozi – shayn bilan.
- Man – man degan kelinni beshik ustida sina.
- Yaxshi gap yashindan tez tarqaladi.
- Oqqo'y ham o'z oyog'i bilan oqsaydi, qora qo'y ham.
- Yaxshi yaxshini gul tagida ko'ribdi.
- Otadan insof ketsa, boladan o'pkalama.
- Yomonga yo'l bitsa, yoniga to'rsiq\* bog'laydi.(6)

Xulosa qilib aytganda, To'ra Sulaymonning hayoti va ijodi o'zgacha. Uning xalq dardi bilan yashashi, xalq dardini qog'ozga tushirishi, barcha asarlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bitta sohada emas, aksincha ko'p mavzularni o'z ichiga olgan holda yaratilgan. Yuqorida keltirilgan she'rlarida ko'ramizki, To'ra Sulaymonning ijodida yana yor-yorlar, afsona, ertak janriga oid asarlar ham mavjud. Bunday she'rlari alohida tahlilga muhtoj. Sevimli shoirimiz To'ra Sulaymon ijodi yuzasidan tadqiqotlarimizni davom ettiramiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. To'ra Sulaymon (1934-2005). 1-bet.
2. <https://youtu.be/6ADS8beftF4?si=k-KJqmq-gfhw8kuc>
3. “To'ra Sulaymon she'riyatining g'oyaviy badiiy xususiyatlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi. 24.09.2019, 36-bet?
4. Sulaymonov T. Sirdaryo qo'shiqlari (she'rlar).-T.: Yosh gvardiya, 1974, 38-bet
5. <https://t.me/MuhammadaliAhmadUz>
6. <https://t.me/MuhammadaliAhmadUz>